



TALABA-YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Asatov To'rabek Xakim o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligiga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillar yoritilgan. Unda shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy ehtiyojlar, o'z-o'zini baholash darajasi, emotsional barqarorlik kabi jihatlar talaba hayoti misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonlik yozuvchilar va olimlarning qarashlari, real hayotiy misollar, statistik ma'lumotlar va psixologik testlar orqali mavzu chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, psixologik omillar, talaba-yoshlar, motivatsiya, emotsional intellekt, o'zini anglash, ijtimoiy ehtiyoj.

KIRISH

Yoshlar, ayniqsa talabalar — jamiyatning eng faol, intiluvchan va ijodiy qatlamidir. Ularning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, tashabbuskorligi va faolligi jamiyatning kelajagini belgilovchi omillardan biridir. Shu bois, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Har bir insonning ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, undagi faollik darajasi shaxsiy xususiyatlar, psixologik holatlar, shuningdek, ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Aynan talabalik davri — shaxs kamoloti, o'zini anglash, jamiyatdagi o'z o'rnini belgilash bosqichidir.

Ijtimoiy faollik — bu shaxsning jamiyatdagi jarayonlarga befarq bo'lmasligi, unda faol ishtirok etishga intilishi, o'z fikrini erkin ifoda etishi, tashabbus ko'rsatishi demakdir.



Ijtimoiy faoliyatni ikkita asosiy jihatda ko'rib chiqish mumkin. Birinchisida, u shaxsning mulki sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy faollik bu holda ta'lim, tarbiya va amaliy jarayonlar davomida shakllangan va rivojlangan tabiiy ma'lumotlar va xususiyatlar bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, bu sifat insonning ijtimoiy muhitga qanday munosabatda bo'lishini va paydo bo'lgan muammolarni (ham o'ziniki, ham boshqa odamlarniki) hal qilish qobiliyatini ko'rsatadi. Ikkinchi jihat faoliyatni faoliyatning muayyan o'lchovi sifatida qaraydi. Boshqacha aytganda, shaxsning mavjud va amaldagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilishiga miqdoriy va sifat jihatidan baho beriladi.

O'zbekiston yozuvchisi H.To'xtaboyev "Shoshqinlar" asarida yoshlar qanday qilib ijtimoiy masalalarga qiziqib, atrofdagilarga yordam berish orqali jamiyatda faollikka erishganini badiiy tasvirlaydi. Bunday asarlar yoshlarning faollikni anglashiga xizmat qiladi.

Ichki motivatsiya va hayotiy maqsadlar. Shaxsning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi — faollikning birinchi bosqichidir. Masalan, "Men o'z sohamda yetakchi bo'laman" degan talabada tashabbus ko'rsatish, jamoa ishlarida faol qatnashish, yangi loyihalar boshlashga intilish kuchli bo'ladi.

Psixolog Maslov fikriga ko'ra, inson motivatsiyasi ehtiyojlar ierarxiyasiga asoslanadi. Eng yuqori bosqich — o'zini ro'yobga chiqarish — ijtimoiy faollik bilan bevosita bog'liq.

O'zini anglash va shaxsiy identifikatsiya. Talaba o'zini kim deb biladi? Qanday imkoniyatlari bor? Bu savollarga javob bera olgan shaxs faolroq bo'ladi. Misol: o'zini "jamiyatda o'zgarish qiladigan inson" deb bilgan talaba volontyorlik, loyiha va forumlarda faol ishtirok etadi.

Emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik. Zamonaviy hayot talabalardan stressga chidamli bo'lishni talab qiladi. Ijtimoiy faol shaxs — bu muammo qarshisida qo'rqmaydigan, o'z emotsiyalarini nazorat qila oladigan odamdir.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra 68 foiz talaba stressni boshqara olmasligini tan olgan. Ijtimoiy faol bo'lgan talabalar orasida bu ko'rsatkich 42 foizga kamaygan.

Shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy ehtiyojlar. Do'stlar, guruhdoshlar bilan yaxshi munosabat o'rnatgan talaba o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi. Bu esa uni ijtimoiy faol bo'lishga undaydi. Universitetda tashkil etilgan klublar, debatlar, "Yoshlar ittifoqi" kabi tuzilmalar buni qo'llab-quvvatlaydi.

Talabalik — bu shaxsning jamiyatdagi o'rnini aniqlab olish bosqichi. Undagi ijtimoiy ehtiyojlar faol harakatlarga sabab bo'ladi.

O'z-o'zini baholash va ishonch. O'ziga ishonmagan talaba o'z fikrini bildirishda qiynaladi, passiv bo'ladi. Ijtimoiy faollik esa ishonch bilan bog'liq. Psixologik mashg'ulotlar, treninglar orqali talabalar o'zini namoyon qila oladigan shaxsga aylanishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ijtimoiy faollik shunchaki faol qatnashish emas, balki ongli harakat, shaxsiy o'sish va jamiyatga foyda keltirishga intilishdir. Talaba-yoshlar orasida bu fazilatni rivojlantirish uchun:

- Psixologik treninglar yo'lga qo'yilishi;
- Tashabbus va yetakchilikni rag'batlantiruvchi tizimlar bo'lishi;
- Ijtimoiy faol talabalar tajribasi boshqalarga namunaviy ko'rsatilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Maslow. Motivatsiya va shaxs nazariyasi. Toshkent, 2020.
2. H.To'xtaboyev. Shoshqinlar. O'zbekiston nashriyoti, 2007.
3. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati to'g'risidagi Qonuni.
4. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: Ilm Ziyo, 2021.
5. Yoshlar agentligi statistik axboroti, 2023-yil.